

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION TA’LIM MUHITINI TASHKL ETISH VA UNING MOBILIGINI TA’MINLASH

N.J.Eshnaev

ChDPU Psixologiya kafedrasida dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7932740>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallashuvning o‘ziga xos jihatlari, jamiyat hayotida yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini, globallashuv sharoitida innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish va uning mobiligini ta’minlash masalalari bilan bog‘liq omillarni ta’lim tizimining quyidagilardan boshlash lozimligi xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, “ta’lim dietasi” integratsiya, mobil, innovatsiya, ta’lim, milliy va muminsoniy qadriyat, jamiyat.

**Аннотация.** В данной стране говорится о специфических аспектах глобализации, ее возможных следствиях в жизни общества, необходимости начать с самих низов системы образования и факторов, связанных с вопросами организации инновационной образовательной среды и обеспечения ее мобильности в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** глобализация, «образовательный район», интеграция, мобильность, инновации, образование, национально-человеческая ценность, общество.

**Abstract.** This article talks about the specific aspects of globalization, its possible consequences in the life of the society, the need to start from the bottom of the education system and the factors related to the issues of organizing an innovative educational environment and ensuring its mobility in the conditions of globalization.

**Keywords:** globalization, "educational diet" integration, mobile, innovation, education, national and human value, society.

Kishilik jamiyati bugungi kunda global muammo va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishning yagona yo‘li sifatida ma’naviy va ma’rifiy uyg‘unlikni muvofiqlashtirish, uning optimal variantlarini demokratik tamoyillar negizida etnopsixologik faktorlarga tayangan holda tashkil etish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan pedagog, psixolog, sotsiolog va boshqa soha vakillari tomonidan global muammo va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganish va bartaraf etishning asosiy manbasi milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarga mos ravishda ta’lim va tarbiyani innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning konseptual g‘oyalariga muvofiq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga ustuvorlik bermoqda.

Ta’lim muhitiga innovatsion yondashuv va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayonining dastlabki paytlarida uning asl mohiyatini yaxshi tasavvur eta olmaganlik sababli, jamiyat yoshlari- globallashuv farovon hayot, demokratik tamoyillar ustuvorligi, erkin savdo yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlaydigan va barcha milliy iqtisodiyotni jamul jam qiladigan ijobiy hodisa ekanligiga ishonishgan.

Biroq bu jarayon ular aytgandek emas, balki jamiyatning barcha sohalriga kirib borib, uning milliy qadriyatlari, turmush tarzi, hamda e’tiqod va psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Globallashuv rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirib, uchinchi dunyo mamlakatalriga, ya’ni rivojlanyotgan mamlakatlarga, xususan, iqtisodiyoti past, jahon arenasida raqobatbardoshligi yetarli bo‘lmagan mamlakatlarni inqiroz tomon yo‘naltiruvchi mexanizmlarga ega ekanligi yuzaga

chiqmoqda. Globallashuv, uning davlat va jamiyatlar hayotida tutgan roli xususida I.I.Belyaev - ...globallashuv boshqa (rivojlanayotgan) mamlakatlar ijtimoiy – ma’naviy hayotiga salbiy ta’sir qilishi mumkin”[1] degan ilmiy mulohazalarini ilgari surgan.

Shuningdek, globallashuv oqibatlari natijasi sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi tufayli subsidiyalangan hududlarda ishsizlikni ko‘payishi, tug‘ilishni pasayishi, atrof-muhit degradatsiyasi, milliy korxonalar va transmilliy korporatsiyalar o‘rtasidagi yuqori raqobat, bozorlarni monopollashuvining kuchayishi hamda iqtisodiy tafovutning oshishiga olib keladi. Globallashuv jamiyat milliy boyligi bo‘lgan ijodiy halokat sur‘atlarini tezlashtiradi, odamlar va umuman jamiyat hayotning yangi shakllariga moslashishga nisbatan agressiyani keltirib chiqaradi hamda jamiyatda hukm surayotgan ideallar, qadriyatlar va an‘analarni chiqarib tashlaydi. Uning o‘rnini davlat va jamiyat hamda millat va xalqqa xizmat qilmaydigan “zamonaviy” “idel va qadriyat”larni taklif etadi.

Informatsion jamiyatning real voqeligi, barchamizni bugungi kundagi o‘zgarishlarga ongli va ratsional omillar nuqtai nazarida yondashuvni taqozo etgan holda, millatlar, xalqlar, davlatlar, umuman insoniyatning ma’naviy hayot haqidagi qarashlari, konsepsiyalari, g‘oya va mafkuralar, individual va ijtimoiy fikrlari o‘rtasidagi munosabatlar g‘oyat murakkab, hatto, ayrim hollarda, ziddiyatligini namoyon qilmoqda.

Jamiyatimizda kechayotgan integratsion taraqqiyotning yoshlar tarbiyasiga ta’sirini o‘rganishda sotsiolog, psixolog, ma’naviyat, pedagog va gumanitar soha mutaxassislarini tashvishlantirayotgan muammolardan biri “kosmopolitizm g‘oyasi” va “ommaviy madaniyat” bo‘lib qolayotganligi hech kimga sir emas.

Mazkur muammolarni bartaraf etish yuzasidan qator ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalr ilgari surilib, yoshlar hyotiga, xususan, jamiyat turmush- tarziga nisbatan ushbu yot g‘oyalarni salbiy ta’sirini menimallashtirish masalalari ilgari surilmoqda. Ushbu yondashuvlar negizida ishlab chiqilgan va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ilg‘or konseptual mexanizmlarni jamiyat hayotining barcha bug‘unlariga to‘liq realizatsiya etish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

XX asrning 90-yillarda vujudga kelgan ko‘p qutblilik va mafkuraviy plyuralizm, “global savdo tarmoqlar”, “sivilizatsion integratsiyalashuv”, “ommaviy madaniyat” dunyoning o‘zaro dialektik aloqa va ziddiyatlar birligi asosida harakat qiladigan ulkan, o‘zaro bir-biriga ta’sir etish kuchiga ega bo‘lgan sistema sifatida faoliyat ko‘rsatishini taqozo qilmoqda.

Bu jarayonning rivojlanish qonuniyat va tamoyillari, ba’zi mutaxassislar nuqtai nazaricha, butun dunyoda iqtisodiy va madaniy makonning paydo bo‘lishi, hamda yagona insoniy mushtaraklikning vujudga kelishi, axborot almashuv jarayonida yagona makonining barpo etilishi kishilik sivilizatsiyasining yangi shakli yuzaga kelishiga olib boradi [12] –degan taxminlar mavjud. Kosmopolitik g‘oya va uning mavjudligi, tarixiy o‘tmishi uzoq, milliy qadriyatlari boy va kelajagi buyuk bo‘lgan mustaqil davlatlarning ertangi kuni va yoshlari istiqboliga tahdid solishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda, doimiy ogohlikni unitmaslik lozim.

Bugungi kunda jamiyatimiz yoshlar ma’naviy va madaniy mobilligi, ongi va tafakkuri bilan bog‘liq bo‘gan masalalarni ilmiy nuqtai nazardan har tomonlama cho‘qur o‘rganish, tashqi ta’silardan himoya qila oladiga ijtimoiy-psixologik mobil “izalyatsion” mexanizmni yaratish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan mobil ijtimoiy-psixologik “izalyatsion” mexanizm g‘oyasi davlat va jamiyat ma’naviy hayoti, uning taraqqiyot, hamda yoshlar istiqbolini ta’minlagan holda ajdodlarigi munosib avlod bo‘lib qolishiga xizmat qilgan holda, millat sifatida ming yillar davomida uning mavjudligini ta’minlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu sohada keng qamrovli, davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo‘lgan, Yangi O‘zbekiston shiori negizida ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda:

- ta’lim mazmunini axborot-informatsion xurujlarga qarshi kurashuvchi immunitetni shakllantirishga yo‘naltirish, hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni mavjud jarayonga muvofiqlashtirish lozim (bunda ta’lim oluvchilarga global informatsion tarmoqdan foydalanish madaniyati, ularning ongi va sog‘lom dunyoqarashini rivojlantiruvchi, hamda motivatsiya beruvchi manbalarga murojaat etishi, har qanday informatsiyaga nisbatan emotsional yondashmasligi, mavjud informatsiyalarni analiz va sintez qilish kompetentligini shakllantirish, o‘zlariga yot va tushunarsiz bo‘lgan ruhiy zo‘riqishga olib keladigan, psixikasiga salbiy ta’sir etadigan manbalar bilan tanishmaslik, ularni targ‘ib va tashviq etmaslik, bu ularning kelajagi va istiqboliga soya solishi xususida ochiq, xolis, har tomonlama ular tushunadigan tilda paralengvistik omillardan foydalangan holda yetkazish masalalarini o‘z ichiga oladi);

- ta’lim tizimining (maktabgacha ta’lim tizimidan-oliy ta’limgacha bo‘lgan) barcha bug‘inida sifat va samradorlikka erishish uchun pedagogik jarayonga “ta’lim dietasi” tushunchasini olib kirish zarur (bunda ta’lim oluvchiga uzatilayotgan bilimlar feltirlab, ularning yoshi va psixologik holati, qiziqishi, qobiliyati va iqtidori inobatga olinishi taqozo etiladi. Shuningdek, pedagog tomonida uzatilayotgan manbalar ta’lim oluvchini kuchli ruhiy zo‘riqishga olib kelmasligi, o‘qish va izlanish hamda o‘zlashtirishga nisbatan antipatiyani shakllantirmasligi, aksincha tez va yengil o‘zlashtirishga, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga, ta’limga nisbatan simpatik munosabatni qaror toptirishga, motivatsion omillar kombinatsiyasini o‘zida mujassamlashtirgan yondashuvlarni o‘zida aks ettirish lozim);

- mavjud va kuchayib borayotgan vertual qaramlikni oldini olish va “texnogen madaniyat”ni milliy va umuminsoniy ma’naviyat “ta’siri doirasida” saqlab qolishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini zamonaviy pedagogik omillar negizida jamiyat hayotiga singdirish (jamiyatning aksariyat a’zolari ijtimoiy tarmoqda faol bo‘lib, o‘z yaqinlaridan, qolaversa oila a’zolaridan borgan sari begonalashib borayotganligi, farzandi va boshqa oila a’zolari bilan suhbatlashishga nisbatan ular xarakterida sovuqqonlikning ortib borishi natijasida bir biriga bo‘lgan befarqlikni kuchayib borayotganligi, otalik va onalik, farzandlikka xos burch va majburiyatlarni unitilayotganligi, ta’lim va tarbiyaning mazmuniga jiddiy zarba berayotganligi, ma’naviy bo‘shliqni keltirib chiqarayotganligi, bu bo‘shliq boshqa yot omillar bilan to‘ldirilayotganligi, uning natijasida oilaviy ziddiyat ortib milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, hamda jamiyat barqarorligiga ko‘rinmas tahdidining ortib borishi, shaxslararo munosabatlarda konfliktlarning barcha turlarini yashirin va ochiq formalari ommalashagan holda boshqarib bo‘lmaydigan darajaga olib kelib qo‘yish ehtimolligini yuzaga keltirishi).

## **REFERENCES**

1. Belyaev M.I. Konsepsiya natsionalnogo gosudarstva. - M.: «Milogiya», <http://www.milogiya2007.ru/rusnaz>
2. Budaeva T.I. Innovatsionniy potensial molodogo pedagoga: problemi i puti resheniya // Prepodavatel XXI vek. 2009.- № 2-1 - S. 32-36.
3. Vertakova Yu.V., Simonenko Ye.S. Upravlenie innovatsiyami. Teoriya i praktika. M., Izd-vo «Eksmo», 2008. - 432 s.
4. Zeer E.F., Kormilseva M.V. Sotsialno-lichnostnie kompetensii i professionalnaya

- mobilnost kak selevaya orientatsiya obrazovaniya // Sibirskiy pedagogicheskiy jurnal, 2009, №. 10, s. 72-78.
5. Kovalev M. Globalizatsiya kak sotsialniy fenomen // <https://spkurdyumov.ru/globalization/globalizaciya-kak-socialnyj-fenomen/>
  6. Obodkova Ye.A., Novikov V.V. Sotsialno-psixologicheskoe upravlenie v period globalizatsii // [https://www.researchgate.net/publication/326073826\\_Sotsialno-psixologicheskoe-upravlenie\\_v\\_period\\_globalizatsii](https://www.researchgate.net/publication/326073826_Sotsialno-psixologicheskoe-upravlenie_v_period_globalizatsii)
  7. Pankova T.N. Professionalnaya mobilnost kak neot'emlemaya xarakteristika sovremennogo spetsialista v sisteme neprerivnogo professionalnogo obrazovaniya // Vestnik Voronej. gos. un-ta. Ser.: Problemi visshego obrazovaniya, 2013, №. 1, s. 99-102.
  8. Usarov J.E., Babaxodjaeva L.G., Sharipova G.N., Eshnaev N.J. Pedagogik kompetentlik. Pedagogik kompetentlik. O'quv qo'llanma. – Chirchiq, 2021.-101 b.
  9. Eshnaev N.J. Normatova Z.A. Xarakteristiki konflikta shkolnogo soobshestva i mexanizmi yego upravleniya // Jurnal nauchnix i prikladnix issledovaniy. Nauchno-prakticheskiy jurnal. 2022. №1, -S.12-15
  10. Eshnaev N.J. Problemi kachestva i effektivnosti i perspektivi professionalnogo obrazovaniya prakticheskogo psixologa // Nauchniy obozrevatel. Nauchno-analiticheskiy jurnal, 2021.№ 11(131), -S. 22-25.
  11. Eshnayev N.J., Ataxo'jayeva Sh.A. Ta'limda diskriminatsiya va uning oqibatleri // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. 2021. №2. Issn: 2181-1776.
  12. Yuldasheva F. Metodologicheskie problemi protsessa globalizatsii. //Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2008. № 2. -s.75.